

O'QITUVCHILARNI TAYYORLASH JARAYONIDA INNOVASION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Eshpulatov Shakir Nabievich

SamDU tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga innovasion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari o'rganadi. U bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga ushbu yondashuvni kiritish bilan bog'liq bo'lgan ijobiy tomonlarni va muammolarni o'rganadi. Adabiyot va tadqiqotlarni keng ko'lamli tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga innovasion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samarali strategiyalarni ishlab chiqishga hissa qo'shishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *innovasiya, loyiha, faoliyatli ta'lim, samaradorli, izchillik.*

Abstract: *This article examines the features of using innovative educational technologies in the process of teacher training. It explores the pros and cons of incorporating this approach into the process of developing professional knowledge, skills and competencies in future teachers. Through an extensive analysis of literature and research, this study aims to contribute to the development of effective strategies for the use of innovative educational technologies in the process of teacher training.*

Key words: *innovation, project, active education, effective, consistency.*

Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimining mazmuni yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, kasbga o'rgatish, ularning aqliy va ma'naviy kamol toptirishdan iboratdir. Zamonaviy pedagogik jarayonda ta'lim qonuniyatlari va tamoyillariga mos holda yangi tamoyillarga amal qilish, innovasion ta'lim texnologiyalarining paydo bo'lishi, ta'lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa ta'limni tashkil etishda innovasion texnologiyalarning keng ko'lamda joriy etilishi kuzatilmoqda.

Innovasion pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nutqai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida innovasion pedagogik texnologiyalarni tarkib toptirish muammosining ijobiy hal etilishi – ushbu muassasalarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning innovasion pedagogik texnologiyalar va ularning mohiyati borasida ma'lumotlarga qanchalik egaligi, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatining shakllanganligi, shuningdek, mazkur o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirilishiga nisbatan e'tiborning qaratilayotganligiga bog'liqdir.

Hozirgi kunda innovasion pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha bir qator vatandosh olimlarimiz ham samarali izlanishlar olib bormoqdalar. Bulardan R.X.Jo'rayev, N.X.Azizxadjayeva, U.N.Nishonaliyev,

M.S.Saidahmedov, B.L.Farberman, H.Ishmatov, X.Abdukarimov, K.Zaripov, B.Ziyomhammadov, M.Kamoliddinov, T.G'afforova, N.X.Avliyoqulov, Q.T.Olimov, R.Ishmuhammedov, O'.Tolipov, T.Nazarova, A.E.Kenjaboyevlarning tadqiqot ishlarini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekistonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda Respublikada innovasion pedagogik texnologiyalarni nazariy, amaliy asoslarini, ularning mukammalligini o'rganish va o'quv-tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan tadbirlar, deb qaralyapti.

Hozirgi zamon pedagogikasi ta'limning faoliyatli texnologiyalariga katta qiziqish bilan qaramoqda. Ta'limga faoliyatli yondashuv L.S.Vigotskiy, P.Ya.Galperin, L.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn ishlariga asoslanadi.

Bu yondashuv asoschilari faoliyatni insonning yashashi va rivojlanishini belgilovchi vazifalarni amalga oshirish jarayonida atrof muhit bilan o'zaro bog'langan maqsadga yo'naltirilgan faolligi sifatida o'rganishgan.

Bundan chiqadiki, ta'lim maqsadi nafaqat ta'lim oluvchilarni bilimlar bilan qurollantirish, balkim, o'z ishini tushungan holda – bilimdon sifatida harakat qilish ko'nikmasini shakllantirishdan iboratdir. Demak, bilimlar harakatlarga o'rgatish vositasi bo'lishi kerak.

Bilimlarni o'zlashtirish faoliyatning boshlanishidan oldin emas, balkim, bevosita shu bilimlarni amaliyotda qo'llanishida va shunday qo'llanilishi sababli amalga oshadi. Ma'lumki, inson qandaydir aniq vazifalarni yechishda qo'llagan o'zining amaliy harakatida foydalangan bilimlarni eng yaxshi o'zlashtiradi.

Faoliyatli yondashuvning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, o'qitish jarayonida talabalarning zaruriy faoliyatini samarali amalga oshirishni ta'minlaydigan bilimlarga tayangan ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim.

O'quv jarayonida talabaning shaxsan tutgan o'rni uning faolligi, tashabbuskorligi, mas'uliyatlilik va natijaga qiziqishida namoyon bo'libgina qolmay, balkim bilim olishda ham ko'rinadi. Bunda talaba ishga yuqori qiziqishi bilan, o'zining oldiga ulkan maqsadlarni qo'ya olishi va qo'yilgan maqsadga erishish yo'llarini topishi bilan ajralib turadi.

Faoliyatli ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchiga o'qishga, boshqa insonlarga va o'ziga bo'lgan munosabatni, muallifi sifatida o'zining hayoti va ta'lim olishini tashkil etishga bo'lgan o'ziga xos o'rnini egallashiga yordam beradi.

Loyihalash texnologiyasi ta'limga faoliyatli yondashuvning bir ko'rinishi hisoblanadi. Ye.S.Polat loyihalash uslubining uslubiga quyidagicha ta'rif beradi². Bu muammoni qismlarga bo'lib ishlab chiqish orqali didaktik maqsadga erishish yo'li bo'lib, u aniq, ko'rinib turgan ma'lum bir shaklda rasmiylashtirilgan amaliy natijalar bilan yakunlanadi.

Bu ahamiyatga ega bo'lgan, qandaydir oxirgi natija ko'rinishida rasmiylashtirilgan muammoni ma'lum maqsad asosida hal qilishga qaratilgan talabaning harakatlar yig'indisidir.

Talabalarga turli fanlardan olgan bilimlarni mujassamlashtirishni talab qiluvchi amaliy vazifalarni amalga oshirish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash imkoniyatini berish loyihalash texnologiyasining asosiy maqsadidir.

Loyiha texnologiyasini muvaffaqiyatli tashkil qilish bir qator talablarni bajarishga bog'liq. Sohalilikni talab etish, ya'ni, loyihalash predmetni himoyalanganligini tasvirlash, ma'lum sohalar bilan bog'lash, degan so'zdir. Ta'lim tizimining ishlashi va rivojlanishi nafaqat psixologik-pedagogik muammolarni, balkim, falsafiy, madaniyatshunoslik, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, fiziologik va boshqa muammolarni ham e'tiborga olishni talab qiladi, pedagogik loyihalash fanlarning keng ko'lamini yorituvchi fanlararo mazmundagi bilimlar bilan ishlay olishga aloqadordir. Agar biz loyihalashtirish natijasida ta'limning yangi modelini olishni istasak, oldin u qamrab oluvchi barcha ijtimoiy-ta'limiy sohalarni tahlil qilish kerak. Loyihaviy qarash doirasiga modelning harakat muhitidagi ta'limning ijtimoiy vaziyati, bir butun ta'lim mazmuni, o'quvchilarning taqdiri kirgan bo'ladi; barcha unga qo'shimcha ta'lim shakllari va qadamlari, qonunchilik me'yorlari va shu kabilar kiradi³. U barkamol avlodni tarbiyalashning barcha aylanmalari, nazorat shakllari, o'qituvchilarining kasbiy ta'lim tizimi, o'quvchilar va pedagoglarning boshqa fanlar bo'yicha testlar bilan ish tajribalari, mavjud o'quv qo'llanmalari tizimi, ma'muriy munosabatlar tizimini ham o'z ichiga oladi.

Barkamol avlodni ta'lim-tarbiya berish, ularda o'z mavqeini anglash va o'z-o'zini ko'rsata olishida imkoniyat yaratib berish o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi xisoblanadi. Innovasion va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, hozirgi davrda boshlang'ich ta'lim jaraynini innovasion texnologiyalar asosida tashkil etish va uni sifatli amalga oshirish, nafaqat zamonaviy ta'lim tizimini samaradorligini belgilab beradi, balkim o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan holda, ko'zda tutilgan maqsad amalga oshirishimiz va natijalarga erishishimizga imkoniyat beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Ditrix Ya. Proyektirovaniye i konstruirovaniye: Sistemnyy podxod / Per. s polsk. - M.: Mir, 2001. 92 s.
2. Polat Ye.S. Tipologiya telekommunikatsionnykh proyektov //Nauka i shkola. - 1997. - №4.
3. Xill P. Nauka i iskusstvo proyektirovaniya. Metody proyektirovaniya, nauchnoye obosnovaniye resheniy / Per. s angl. - M.: Mir, 2003. 32 s.
4. Muslimov N. A., Urazova M. B., Eshpulatov Sh. N. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi //Toshkent: Fan va texnologiya. – 2013. – T. 160.